

O'ZBEK TILINI O'RGANISHDA SUN'IY INTELLEKTNING AHAMIYATI

Komilova Z. X

Farg'ona Davlat Universiteti

Xumor851@mail.ru

Shermatova Osiyo Bunyod qizi

FarDU talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasining davlat tili bo'lmish o'zbek tilini o'rganishda sun'iy intellektning (SI) o'rni qayday ekanligi chuqur tahlil qilinadi. Asosiy e'tibor sun'iy intellektning bu sohadagi ijobiy va salbiy ta'sirlariga qaratilgan. Shuningdek, sun'iy intellekt tushunchasi, uning til o'rganishdagi o'rni, o'zbek tili uchun yaratilayotgan imkoniyatlar hamda istiqboldagi yo'nalishlar haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, mashina o'rganishi, tabiiy tili, chatbotlar,

Kirish: Texnologiyalarning rivojlanish davrida yashar ekanmiz, har bir sohaga sun'iy intellektning sekin-asta kirib kelayotgani hammamizga ma'lum. Shular qatorida ta'lim sohasini ham o'z ichiga qamrab olayotganiga ham guvohi bo'layapmiz. Shunday ekan, har qanday zamonaviy texnologiya avvalo ona tilini rivojlantirish, uni o'rganish va o'rgatish jarayoniga xizmat qilishi kerak. Shu nuqtai nazardan, O'zbek tilini o'rganish jarayonida sun'iy intellekt vositalarining qo'llanilishi bugungi kunda nihoyatda dolzarb masalaga aylanmoqda.

Sun'iy intellekt tushunchasi va uning imkoniyatlari

Sun'iy intellekt — bu inson aql-zakovati talab etiladigan vazifalarni kompyuter yoki dasturiy tizimlar yordamida bajarish imkonini beruvchi texnologiyalar majmuasidir. U mashina o'rganishi (machine learning), tabiiy tilni qayta ishlash (NLP), nutqni tanish, tasvirni aniqlash, chatbotlar kabi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi. Bugungi kunda ChatGPT, Google Translate, Duolingo, Grammarly, DeepL kabi tizimlar til o'rganish va o'rgatish jarayonida keng qo'llanilmoqda. Ular foydalanuvchiga tilni interaktiv tarzda o'rganish, matnlarni tahlil qilish, talaffuzni to'g'rilash, tarjima qilish va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi. Sun'iy intellektning asosiy afzalligi — bu shaxsiylashtirilgan o'qitish imkoniyatidir. Har bir o'quvchi yoki foydalanuvchi o'z tezligi, darajasi va ehtiyojlariga mos tarzda bilim olish imkoniga ega bo'ladi.

O'zbek tilini o'rganishda sun'iy intellektning o'rni

So'nggi yillarda O'zbek tilini o'rganish bo'yicha turli loyihalar va dasturlar ishlab chiqilmoqda. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Til siyosati departamenti va AKT vazirligi hamkorligida "O'zbek tili korpusi", "O'zbekcha nutq tanish tizimi", "Sun'iy intellekt asosida avtomatik tarjimon" kabi dasturlar yo'lga



qo'yilgan. Bundan tashqari, O'zbekiston Milliy axborot agentligining xabar berishicha, "Ibrat farzanlari" loyihasida sun'iy intellekt yordamida o'zbek tilini o'rgatish moduli ishga tushdi. Dastur O'zbekistonda ilk bor sun'iy intellekt asosida ona tilimizning talaffuzini audiolashtirib, til o'rganishning 6 asosiy ko'nikmasini qamrab olgani bilan ajralib turadi. Eng muhim yangiliklardan biri endilikda xorijliklar learnuzbek.ai platformasi orqali kuniga atigi 15 daqiqa ajratib, o'zbek tilini o'rganishlari mumkin.

Sun'iy intellekt texnologiyalari o'zbek tilini o'rganish jarayonida quyidagi yo'nalishlarda yordam beradi: - Nutqni tanish va talaffuzni yaxshilashda ovozli yordamchilar (masalan, Google Assistant, Yandex Alisa). Ular o'zbekcha nutqni tushunishga o'rgatilmoqda. Bu o'zbek tilini o'rganayotganlarga talaffuzni to'g'rilash, so'zlarni to'g'ri aytish va tinglab tushunish ko'nikmasini oshirishga yordam beradi. Matn tahlili va grammatik tuzatishda sun'iy intellekt matndagi imlo va uslubiy xatolarni avtomatik aniqlab, foydalanuvchiga tavsiya beradi. Masalan, "Grammarly" dasturining o'zbekcha muqobillari ishlab chiqilsa, bu yozma savodxonlikni sezilarli darajada oshiradi. Tarjima va so'z boyligini oshirishda avtomatik tarjima tizimlari (Google Translate, Yandex Translate) bugungi kunda o'zbek tiliga ham tarjima qila oladi. Bu xorijliklar uchun o'zbek tilini o'rganish, o'zbek foydalanuvchilari uchun esa chet tillarini o'zlashtirishda katta yordam beradi. Virtual o'qituvchilar va chatbotlar. Sun'iy intellekt asosida ishlovchi chatbotlar o'quvchilar bilan muloqot qiladi, savollar beradi va javoblarni tahlil qiladi. Masalan, ChatGPT kabi tizimlar o'zbek tilida muloqot qilish orqali foydalanuvchining lug'at boyligini va grammatik bilimni oshiradi. Ta'lim jarayonini o'zlashtirishda SI o'quvchining o'rganish tezligi, xatolar soni, qiziqishlari va qiyinchiliklarini tahlil qilib, individual o'quv dasturini shakllantira oladi. Bu esa ta'lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Sun'iy intellekt yordamida til o'rganishning bir qator afzalliklari ham mavjud bo'lib, ular o'quv jarayonining interaktivligi, individual yondashuvlar, xatolarni avtomatik tahlil qilish va to'g'rilash, qiziqarli o'yinlar o'rganish muhitini yaratishdan iborat. Biroq, bu jarayon bilan bog'liq muammolar ham yo'q emas. Bularga misol, o'zbek tilida sifatli raqamli ma'lumotlar yetishmasligi, ayrim SI tizimlarining o'zbek tilini to'liq tushunmasligi, insoniyatning texnologiyalarga bog'lanib qolish xavfi, o'qituvchilarning SI bilan ishlash bo'yicha tayyorgarlik darajasi pastligi va h.k. Shuning uchun bu texnologiyalarni joriy etish jarayonida ham inson omili, ya'ni o'qituvchi va tilshunos mutaxassislarining faol ishtiroki muhimdir.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, o'zbek tili dunyo tillari orasida o'z o'rnini mustahkamlash, zamonaviy axborot texnologiyalariga integratsiyalashish uchun sun'iy intellektidan keng foydalanish zarur. Buning uchun raqamli lug'atlar, matn korpusi, avtomatik tarjimonlar, ovozli tizimlar va onlayn o'qituvchilarni rivojlantirish ustida izchil ish olib borish lozim. Shunday qilib, sun'iy intellekt — bu texnologik yutuq emas, balki o'zbek tilining yangi bosqichga ko'tarilishiga xizmat qiladigan ma'naviy va ilmiy vositadir. Kelajakda sun'iy intellekt yordamida "aqlli darsliklar", "virtual o'zbek tili



o'qituvchilari", hatto real vaqt rejimida tarjima qiluvchi qulay vositalar paydo bo'lishi kutilmoqda. Bu esa o'zbek tilining o'rganilishini nafaqat mamlakatimizda, balki butun dunyoda ommalashtirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-5117-sonli qarori. – Toshkent, (2021).
2. Abdullayeva, G. "Sun'iy intellekt va ta'lim: zamonaviy yondashuvlar." – Axborot texnologiyalari va ta'lim , (2023).
3. Karimov, A. "Raqamli texnologiyalar va til o'qitishning yangi bosqichi." – Ta'lim va innovatsiya jurnali , (2022).
4. O'zbekiston Milliy axborot agentligining uza.uz sayti.
5. Qodirov, B. "Sun'iy intellekt va o'zbek tili: imkoniyatlar va muammolar." – Til va jamiyat, (2024).
6. Tojiboyev, I., & Karimova, N. (2022). Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashning metodik asoslari. Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar jurnali, 4(3), 87–95.
7. Qodirova, M. (2021). O'zbekistonda raqamli ta'limni joriy etishning tashkiliy-pedagogik asoslari. Pedagogika va psixologiya jurnali, 2(1), 56–63.
8. Tojiboev I.T., Komilova Z.X. (2023). Some approaches to teaching programming languages in professional educational institutions. Education and science in the XXI century. 2 (38).
9. Tojiboev I.T., Komilova Z.X. (2023) The role of information technologies in teaching technical sciences in professional educational institutions. Scientific and practical journal "Technique". Issue No.1.
10. Komilova, Z. Kh. (2023). The role and importance of information technology science in today's society. Education and innovative research. Bukhara State University, 2(2), 234-237.
11. Komilova Z.Kh, Nazirjonova. F.S The role of new information technologies in education. Экономика и социум. 2021, № 4-1 (83), -C.167-170.
12. Z. X. Komilova. Axborot texnologiyalari fanining hozirgi jamiyatdagi o'rni va ahamiyati //Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar. Buxoro davlat universiteti. – 2023. – T. 2. – №. 2. – C. 234-237.
13. Z. X. Komilova & F. S. Nazirjonova. (2020). The value and role of interactive methods in the development of information technology in primary school pupil. Academicia An International Multidisciplinary Research Journal (Double Blind Refereed & Reviewed International Journal). ISSN, 2249-7137.